

FARG‘ONA VILOYATI ZIYORATGOHLARINING TARIXI

Nodirbek Hursanaliyev

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi
ilmiy xodimi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola orqali Farg‘ona viloyati ziyoratgohlarini arxeologik va etnografik ma’lumotlar asosida o‘rganish, shuningdek ular bilan bog‘liq bo‘lgan atamalar, toponimlar haqida yoritib berilgan. Ziyoratgohlarning qayerda va qaysi hudud bilan chegarada ekanligi, ularning o‘ziga hos geografik hususiyatlari to‘g‘risida malumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Da-Yuan, Boburnoma, donay kalon, subhoni, Xudoyorxon saroyi, Qubo, Hamzaobod, Buvimmozor, Arnold Toynbi.

Farg‘ona vodiysining shaharlari to‘g‘risidagi ilk ma’lumotlar eramizgacha II-I asrlarga oid yozma yodgorliklarda tilga olinadi. Xitoy solnomalarida Da-Yuan davlatida (ya’ni Farg‘onada) 70 ta katta va kichik shahar mavjud bo‘lganligi qayd etilgan. “Boburnoma”da Zahiriddin Muhammad Bobur Marg‘ilon Farg‘onaning 8 ta shaharlaridan biri ekanligini qayd etadi; shaharning obodligi haqida yozib, mevalarining, xususan, anorning donai kalon, o‘rikning subhoni navlarining shirin ta’miga tan beradi. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, shaharning 12 ta darvozasi bo‘lgan. Tabiiy-geografik sharoitlarning maqbul ekanligi Marg‘ilonning XI-XII asrlarda Buyuk ipak yo‘lining shimoliy va janubiy tarmoqlari o‘tgan yirik shaharga aylanishiga sabab bo‘lgan. Aynan shu davrda butun islom dunyosi tan olgan fikshunos olim Burhoniddin al-Marg‘iloniy yashab, ijod qilgan¹. Buyuk Temur va temuriylar hukmronligi davrida ham Marg‘ilon Farg‘ona vodiysidagi yirik shaharlardan biri deb hisoblangan. Marg‘ilon atlas – tabiiy shoyidan to‘qilgan tengi yo‘q matosi bilan butun olamga dong taratgan. Shahar aholisi qadimdan to‘qimachilik hamda do‘ppido‘zlik bilan shug‘ullanib keladi, shu bilan birga hunarmandchilikning boshqa turlari, xususan, misgarlik, zargarlik ham keng tarqalgan. XVIII asrdan e’tiboran, Qo‘qon xonligining poytaxtida ko‘plab masjid, madrasa, savdo rastalari, bozorlar, boshqa tarixiy obektlar bunyod etilgan. Ular orasida Xudoyorxon tomonidan 1873- yilda qurilgan O‘rda yaxshi saqlangan. Bu binoni “Xudoyorxon saroyi”, deb ham ataydilar. Saroyning umumiy maydoni 4 gektar, uning poydevori 3 metr balandlikka ko‘tarilgan. Shu

¹ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T., 2012. – B. 56.

sababli ham saroyga bosh darvoza orqali kirish uchun sharqiy tomondan maxsus yo‘l qurilgan. Darvozaxonaning ustki qismiga arab harflari bilan “Buyuk Sayid Muhammad Xudoyorxon”, deb yozib qo‘yilgan. Saroy qurib bitkazilganida, uning uzunligi 138 metr, kengligi 65 metrni tashkil etgan edi. Saroy 7 ta hovli va 119 ta xonadan iborat bo‘lgan. O‘sha paytda o‘rda ichki va tashqi devorlar bilan o‘rab olingandi. Devorlar saqlanib qolmagan, bizgacha faqat ikkita hovli va 19 ta xona etib kelgan, xolos. Bugun bu erda Qo‘qon o‘lkashunoslik muzeyi joylashgan. Quva – Farg‘ona viloyati Quva tumani markazi. O‘rta asrlarda bu yerda X asrga oid arab manbalarida esga olingan Qubo shahri joylashgan bo‘lib, uning xarobalarigina saqlanib kolgan. Shahar uch qism: qal‘a, minorali darvozalari bo‘lgan devorlar bilan o‘ralgan shahriston hamda rabotdan iborat bo‘lgan. 1956-1958 yillarda devorlar ortida o‘tkazilgan qazish ishlari natijasida VII-VIII asrlarga oid Buddaning sopol haykallari hamda buddaviy daxmaning turli ilohlari qo‘yilgan ibodatxona topilgan; qal‘ada esa VII-X asrlarga oid uy-joy va xo‘jalik bino-inshootlarining qoldiqlari, kundalik hayotda ishlatilgan narsalar va boshqalar topilgan. Hozircha olimlar Quvaning haqiqiy yoshini o‘rnatganlaricha yo‘q, biroq ular ayrim topilmalarga qarab, bo‘lajak bepoyon shahriston o‘rnatilgan joyda ilk aholi manzilgohlari eramizgacha IV-III asrlarda paydo bo‘lgan, deb taxmin qilmoqdalar. Ilk O‘rta asrlar davrida Kubo (ya‘ni Quva) katta ahamiyatga ega bo‘lib, shaharda hunarmandchilik, ayniqsa, kulolchilik, zargarlik, misgarlik, metallga ishlov berish kabi tarmoqlar rivojlangan. Qadimgi shahar hududidagi ibodatxonada mahobatli haykalning parchalari, shuningdek, vayron qilingan Buddha haykali topilgan bo‘lib, bu, Farg‘onada buddizmning tarqalganligidan dalolat beradi. Ibodatxona arablar Markaziy Osiyoni istilo qilgan davrda vayron qilingan. Muarrixlar Quvani O‘rta asrlarda yashab o‘tgan buyuk qomusiy olim – Ahmad al-Farg‘oniyning Ona yurti, deb hisoblaydilar. Zamonaviy shaharning deyarli markazidagi o‘n besh gektarlik maydonda qal‘ali shahriston joylashgan. Bugungi Quva bog‘ va uzumzorlari, ayniqsa, shirin anorlari bilan dong taratgan go‘zal va navqiron shahar hisoblanadi. Shohimardon – O‘zbekistonning eng go‘zal go‘shalaridan biri. Bu tog‘li qishloq Farg‘onaning janubidan 55 kilometr narida, dengiz sathidan 1550 m. balandlikda, Oloy tizmasi yonbag‘rida joylashgan. Shohimardon hududidan tog‘lardan ikki tomondan oqib keladigan soylar – Oqsuv va Ko‘ksuv o‘tib, ularning suvlari birlashib, Shohimardonsoyni tashkil etadi. Farg‘onadan qishloqqa etib olish uchun yo‘lda Shohimardonsoyni yetti marta kesib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Shohimardon (1934 yildan 1991 yilgacha Hamzaobod deb nomlangan) – qo‘shni Qirg‘iziston hududida joylashgan O‘zbekistonga qarashli kichik anklavdagi tog‘li kurort (1934 yildan)dir. Farg‘ona viloyati Buvayda tumanida Bibi Ubayda ziyoratgohi bor. Bu ziyoratgohi o‘zining tarixiyligi va ijtimoiy salmog‘i jihatdan e‘tiborga loyiqdir. Ziyoratgoh Buvayda qishlog‘idan 8 km sharqda, Markaziy Farg‘ona cho‘lining g‘arbiy poyonida

joylashgan. Qishloq “Bibi Ubayda” (“Hazrat Bibi”, “Buvimmozor”) nomi bilan yuritiladi. Bu yerdagi qabristonga vodiya musulmonlikni birinchilardan bo‘lib qabul qilgan, birinchilardan bo‘lib haj ziyoratiga musharraf bo‘lgan, (Farg‘ona vodiysiga islom dinini yoygan arab sarkardasi Said ibn Usmonning zavjasi) Bibi Ubayda (r.a.) dafn etilgan. Bu joy keyinroq katta qabriston va ziyoratgohga aylanib ketgan, – deb yozilgan. Tarixchi olimlar Nodir Abduhatov, Abdujabbor Rahmonov, Muhammadjon Ahmedovning “Buvayda ziyoratgohlari” kitobida. Bibi Ubayda ziyoratgohi Farg‘ona viloyati Buvayda tumani Buvayda qishlog‘ida joylashgan muqaddas ziyoratgohlarda biri hisoblanadi. Bu ziyoratgoh majmuasi tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Bibi Ubaydo xonim nomi bilan ataluvchi ziyoratgoh X–XI asrlardan buyon mavjud, Bibi Ubaydo xonim yashagan joylari ustida qurilgan bu ziyoratgoh 2005- yili butunlay ta’mirdan chiqarilgan va uning tarkibida bo‘lgan har bir inshoot qayta qurildi va ta’mirlandi. Ta’mirdan chiqqan muqaddas maskan yilning har bir faslida ziyoratchilar bilan gavjum¹. Bibi Ubaydo ziyoratgohi tarixi Buvayda tumani tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir. Buvayda so‘zining atalishi ham Bibi Ubaydo xonimning ismlaridan kerlib chiqqan deb hisoblandi. X–XI asrlar oralig‘ida Farg‘ona vodiysi hududida hukumdorlik qilgan sulola malikasi bo‘lgan Bibi Ubaydo xonim, hozirgi ziyoratgoh hududida berib kelgan va ularning xolidan xabardor bo‘lgan, xalq orasida katta xurmatga ega bo‘lgan Bibi Ubaydo xonim keyinchalik shu ziyoratgoh hududida vafot etgan va dafn etilgan ziyoratgoh hududi XIX-XX asrlarda juda haroba ko‘rinishga kelib qolgan. Uning qayta ta’mirilanishi natijasida uning asl qiyofasi qayta tiklangan. Buzozor qishlog‘i hududida joylashgan maskan kuniga ikki yuzga yaqin ziyoratchilar, mehmonlar va sayyohlar tashrif buyuradi. Bibi-Buvayda rafiqasi Shohi Jalil bilan Madinaga yo‘l oldi, ammo Qo‘qonda vafot etib, qabrlari o‘sha yerda qolib, mozorga aylandi. Bibi-Buvaydani farg‘onalik ayollar alohida e‘zozlashgan. Rivoyatlarga ko‘ra, u birinchi farg‘onalik ayollar qatorida islom dinini qabul qilgan. Har yili odamlar uning xotirasini sharaflash uchun bu erga kelishadi. Keyinchalik Bibi Buvayda mozori bilan bog‘liq ba’zi xurofotlar paydo bo‘ldi: “Bibi Buvayda mozoriga bormagan ayollarning taomlari mazali bo‘lmaydi”. Farg‘ona vodiysi ziyoratgohlarining vujudga kelishi islom dinining dastlabki davrlari bilan bog‘liqdir. Ko‘pincha bu mozorlar islom uchun shahid bo‘lgan kishilar yoki din yo‘lida katta xizmatlar qilgan ulamolar dafn etilgan joylar sifatida qadrlanadi. Bunday joylar Farg‘ona vodiysida o‘rta asrlardayoq ziyoratgoh sifatida muqaddaslashtirilgan². Shunday qilib, o‘zbek mentalitetining muhim belgilaridan biri bo‘lmish muqaddas joylarni ziyorat qilish aslida islomdan oldingi diniy e‘tiqodlar – animizm va fetishizm

¹ Абдулахатов Н., Азимов В. Олтиариқ зиёратгоҳлари. –Т.: “Шарқ”, 2005.– Б. 120.

² Темурнома. – Т.: “Чўлпон”, 1990. – Б. 52.

bilan bog‘liqdir. Islomiyat davrida bu qadimgi udum transformatsiyaga uchrab, ziyoratgohlar islom dini arboblarning nomi bilan bog‘landi. Shu yo‘l bilan islom targ‘ibotchilari oldingi diniy e‘tiqodlarni bartaraf etish va yangi islom dinini qaror toptirishga uringanlar. Hozirgi kunda esa bu ziyoratgohlarni tavof qilish xalqimiz uchun o‘tganlar ruhini shod etish, o‘z ezgu niyatlarini ro‘yobga chiqishiga umid bog‘lash kabi optimistik xislatlarini o‘zida namoyon etmoqda. Xalqimiz ayollar nomiga oid ziyoratgohlarga nisbatan ko‘p hollarda “Bibi”, “Momo”, “Ona”, “Buvi” atamalarini qo‘shib aytish bilan ularni o‘zlariga eng yaqin mehribon insonlar sifatida qarab, “onajonimiz”, “buvijonimiz”, “momomiz”, deya hurmat ma’nosida tilga oladilar. Shu sababdan “Bibi Ubayda” ziyoratgohi xalq tilida “Buvimozor” deb yuritiladi. Yakkayu yagona o‘g‘lidan judo bo‘lgan Bibi Ubayda o‘z yurtidan bosh olib, muqaddas shahar – Makkayu-Madinaga ravona bo‘ladi. U bilan birga kelini va nabirasi Muhammad Jarir hamrohlik qiladilar. Farg‘ona cho‘llaridan o‘tish chog‘ida kuchli bo‘ron (Qo‘qon shamoli) ularni biri-biridan ajratib yuboradi. Odamlar ularni izlab topishgan chog‘da fursat qo‘ldan berilgan edi. Chunki ularning barchasi qum ostida qolib ketib, fojiali halok bo‘lgan edilar. Ularni qayerdan topishgan bo‘lsa, shu yerning o‘ziga dafn etadilar. Natijada bir-biridan 2-3 chaqirim uzoqlikda ikki mozor qad ko‘taradi... Ziyoratgohga kirganingizda maqbara ichidagi bitta xonada katta va kichik qabrlar, qo‘shni xonada yana bitta qabr bor. Katta qabr Bibi Ubaydaning nabirasi Shoh Jarirniki bo‘lib, kichik qabr Bibi Ubaydaga tegishli. Qo‘shni xonadagi qabr esa Bibi Ubaydaning kelini Badi‘abonu qabridir, – deydi. Bugungi kunda Buvayda tumani tarixini yozayotgan faxriy o‘qituvchi Erkin Xo‘jayev. Hozirda Buvimozor qabristonidagi Bibi Ubaydaning maqbaralari ziyoratchi ayollar bilan hamisha gavjum. Keksalarni aytishiga ko‘ra, avvallari Bibi Ubayda mozori shu qadar mashhur bo‘lganidan “Bibi Ubaydani hayotida biror marta bo‘lsa ham ziyorat qilmagan ayolning oshi haromdir yoki bo‘yi yetgan qiz uch marta Bibi Ubaydani ziyorat qilmasa, pishirgan taomi halol emas”¹, degan iboralar ham xalq orasida keng tarqalgan ekan. Bibi Ubayda mozori – bu ayollarga xos ziyoratgoh deyish mumkin. Zero, bu yerga asosan ayollar ziyoratga keladi. Yana, tarixchi olim Nodir Abdulhatovning kitobida bayon etilgan fikrlarga qaytamiz: “Aytishlaricha, Bibi Ubayda yetti mashhur bibilardan biri bo‘lib, ziyoratga ayollar yettita chalpak pishirib kelganlar. Haftaning har chorshanba kuni ziyoratdan tashqari “Buvimni sochini yuvish” marosimi ham bajarilgan. Unga ko‘ra, har bir ayol taroq va qatiq olib kelgan. Emishki, Bibi Ubayda kunlarning birida ziyoratga kelgan bir xasta qizga ko‘ringan va undan sochini yuvishga yordamlashishni iltimos qilgan. Bemor qiz Bibi Ubaydaning sochini har haftaning juma kuni kelib yuvishga yordam bergan. Shu tarzda u o‘z kasaliga davo topib, darddan

¹ Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani Shopo‘lat qishlog‘i. 2023 yil.

forig' bo'lgan ekan. Ziyoratga kelgan ayollar Bibi Ubayda oq libos kiyib yuradi deb tasavvur qilganlar va shuning uchun ham Bibi Ubayda mozori oldiga oq surpni yoyib, o'z tilaklarini aytganlar. Shu o'rinda yana bir gapni aytib o'tish lozim. Erkaklar va ayollarning ziyorat odobi ham o'ziga o'ziga xos bo'ladi. Bu yerda ayollar guruh-guruh bo'lib kelishadi. Osh-ovqat pishirib, ba'zida o'yin-kulgu qilishadi, childirma chalib, xalq laparlari va qo'shiqlarini kuylab hordiq chiqarishadi. Qabr yoniga oq surp, oq ro'mol, turli pishriqlar, pul qo'yib ketishadi. Bu yerda tilagan niyatlari amalga oshgach, yana kelib boshqadan ziyorat qilib ketishadi. Keyingi yillarda mustaqilligimiz sharofati bilan o'tmish tarixga, boy madaniy merosga bo'lgan qiziqish ortdi. Tariximizni birlamchi manbalar asosida o'rganmay turib, kelajakni qurish, madaniy-ma'rifiy va milliy o'zligimizni anglash qiyin, degan fikrni O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Karimov bir guruh tarixchilar va jurnalistlar bilan uchrashuvlarida ta'kidlab o'tgan edi. Bu uchrashuvlarda milliy o'zligimizni sarchashmasi tarix va madaniy meros ekanligi alohida ta'kidlanib, ularga munosabat davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Vazirlar Mahkamasining 7- iyul 1998- yildagi "O'zbekiston Respublikasi FA Tarix Instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" chiqargan qarori bunga misol bo'la oladi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarida olg'a surilgan g'oyalar o'zbek xalqi va uning davlatchilik tarixining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi... Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas... Davlatimiz, millatimizning haqqoniy ilmiy tarixini yaratish keng jamoatchiligimiz uchun g'oyat muhim va dolzarb masalaga aylanishi lozim"¹. Ta'kid etilgan hujjatlarning muhim tomonlaridan biri – ularda mamlakatimiz hududida eng qadimgi zamonlardan to hozirgacha bo'lgan davlatchilik tarixi va uning bosqichlarini, shu hududda yashagan xalqlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotini keng va chuqur o'rganish uchun qulay shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratib berildi. Jumladan, o'zbek xalqining ko'hna dehqonchilik madaniyati, uning ilk markazlaridan biri bo'lmish Farg'ona vodiysi tarixini o'rganishga ham katta ahamiyat berildi. Kishilik jamiyatining daholaridan biri Arnold Toynbi vodiyya deb ta'rif berishi bejiz emas.

Muqaddas ziyoratgohlarda xalq ruhiyati ifodalangan bo'lib, ularda asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan afsona va rivoyatlar, turli hikmatli hikoyatlar xalq og'zaki badiiy ijodining namunasi sifatida ma'naviy merosimizning uzviy qismini tashkil etadi. Jumladan, avliyolar hayoti bilan bog'liq ibratli hikoyatlar, milliy

¹Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 86.

qahramonlarning dushmanlarga qarshi mardona kurashlari va jasoratlari to'g'risidagi afsona va rivoyatlar hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan bo'lib, ular o'zlikni hamda milliy qadriyatlarning mohiyatini anglashda aholiga yaqindan yordam beradi. Ikkinchidan, muqaddas ziyoratgohlardagi hayvonlar, daraxt va o'simliklar hamda buloqlar bilan bog'liq qarashlar ekologiyani saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga kishilarning ekologiya to'g'risidagi bilim va tushunchalarini mustahkamlab boradi. Farg'ona xalqlari o'zining ko'p asrlik tarixi mobaynida muqaddas mozorlar bilan bog'liq rang-barang marosimlar tizimini yaratibgina qolmay uning ijrochi amaliyotchisiga aylandi. Garchi muqaddas mozorlardagi urf-odat va marosimlarining ba'zi birlari hayotdagi ulkan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar, ayniqsa, ilmiy-texnika inqilobi ta'sirida asta-sekin yo'qolib, ayrimlari o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, biroq ularning barchasi qanday g'oyaviy yo'nalishda bo'lganligidan qat'i nazar xalqning amaliy faoliyatida o'tmishda va hozirgi kunda ham qo'llanilib kelinayotganligi bilan katta tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega. Asrlar davomida muqaddas mozorlar Farg'ona vodiysi aholisining hayoti va dunyoqarashida muhim ahamiyat kasb etib keldi. Mozorlar kishilarning ijtimoiy va madaniy turmushida tutgan o'rnidan tashqarijoylarning topografiyasini hamda hududning diniy-mental xaritasini yaratuvchi omillarni keltirib chiqaruvchi murakkab ko'rinishni o'zida aks ettirdi. Qadimdan mozorlar muqaddas joylar sifatida e'zozlanib kelingan va odatda ularning ko'p qismi hududlarning iqtisodiy rivojlagan markazlarida joylashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 86.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Т., 2012. – В. 56.
3. Абдулахатов Н., Азимов В. Олтиариқ зиёратгоҳлари. –Т.: “Шарқ”, 2005.– Б. 120.
4. Темурнома. – Т.: “Чўлпон”, 1990. – Б. 52.
5. Ҳомидий Ҳ., Аширов А., Умаралиев М. Косонсой тарихи (тарихий-илмий лавҳалар). – Т.: EXTREMUM PRESS, 2010
6. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т., 2001
7. www.ziyo.uz
8. www.arxiv.uz